



**O'QUVCHILARNING O'QIB TUSHUNISH
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA
ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALARNING O'RNI**

Razzakova Muqaddas,

Pedagogik mahorat markazi

Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası

Qoraqalpog'iston Respublikasi



**THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL
TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS'
READING COMPREHENSION SKILLS**

Razzakova Muqaddas,

Department of Language Teaching Methodology

Pedagogical Excellence Center

Republic of Karakalpakstan



E-mail:

razzakovamuqaddas@gmail.com

Orcid: 0009-0004-4332-8951

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18310218>

**РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ
ЧТЕНИЯ И ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА У
ОБУЧАЮЩИХСЯ**

Раззакова Мукадас,

Кафедра методики преподавания языков

Центр педагогического мастерства

Республика Каракалпакстан

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni, ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarning o'qib tushunish jarayoniga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: o'qib tushunish, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, innovatsion ta'lim, kompetensiya, AKT.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически и практически анализируется роль современных педагогических технологий в развитии навыков чтения учащихся, их значение в повышении эффективности образования. Также освещается влияние интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий и инновационных подходов на процесс чтения и понимания.

Ключевые слова: понимание прочитанного, педагогическая технология, интерактивные методы, инновационное образование, компетенция, ИКТ.

Annotation. In this article, the role of modern pedagogical technologies in the development of students' reading comprehension skills and their importance in increasing the effectiveness of education are analyzed from a scientific-theoretical and practical point of view. The influence of interactive methods, information and communication technologies, and innovative approaches on the process of reading comprehension is also highlighted.

Keywords. reading comprehension, pedagogical technology, interactive methods, innovative education, competence, ICT.



KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri o'quvchilarda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish va o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. O'qib tushunish ko'nikmasi shaxsning intellektual rivoji, bilimlarni egallashi va hayotiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'qib tushunish ko'nikmasi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati O'qib tushunish – bu matni mexanik o'qish emas, balki uning mazmunini anglash, muallif g'oyasini idrok etish, xulosalar chiqarish va o'z munosabatini bildirish jarayonidir. Ushbu ko'nikma o'quvchilarda bilimlarni chuqur o'zlashtirish, mantiqiy tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – bu ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va natijadorligini ta'minlashga yo'naltirilgan innovatsion metod va vositalar majmuidir. Ular o'quvchi shaxsini markazga qo'ygan holda, uning faolligi va mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi pedagogika va metodika fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovalarning tadqiqotlarida badiiy va ilmiy matnlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning tafakkuri, nutqi hamda tahliliy fikrlashi rivojlanishi asoslab berilgan. Q.Yo'ldoshevning ilmiy ishlarida esa adabiyot va til ta'limida innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlardan foydalanish o'quvchi faolligini oshirishi ta'kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'qib tushunish jarayonini samarali tashkil etishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Mazkur ilmiy manbalar ushbu tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, kuzatish va amaliy topshiriqlarni ishlab chiqish metodlaridan foydalanildi. O'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi matn asosidagi topshiriqlar orqali tahlil qilindi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning fikrlash faolligi va matni anglash darajasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar qo'llanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR



O‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘llaniladigan texnologiyalar. Ta‘lim jarayonida quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qib tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi:

- interfaol metodlar (klaster, insert, aqliy hujum, konseptual jadval);
- muammoli ta‘lim texnologiyasi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (elektron darsliklar, multimediya vositalari);
- loyihaviy ta‘lim;
- tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi.

Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning matn bilan ishlash malakalarini oshirib, ularni mustaqil tahlil va xulosa chiqarishga undaydi.

Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning o‘qib tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, matn ustida INSERT usulidan foydalanish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirsa, klaster metodi asosiy g‘oyalarni tizimlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari o‘quvchilarning o‘qib tushunish savodxonligini oshirishda matnlar ustida ishlash ham katta samara beradi. Biz ushbu naqolada o‘qib tushunishga doir ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bir nechta o‘quv topshiriqlarini berishga harakat qildik. “Davlat tili” matni orqali o‘qib tushunishga doir topshiriqlarni ko‘rib chiqamiz.

1. Matn. *Til – millatning eng muhim belgisidir. U nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixini, madaniyatini, dunyoqarashini, ruhiyatini va tafakkurini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisadir. Shu jihatdan, o‘zbek tili xalqimizning asrlar davomida shakllangan boy ma‘naviy merosini, milliy o‘zligini va mustaqil davlatchilik tafakkurini ifodalovchi muhim omil hisoblanadi.*

Har yili 21-oktabr kuni mamlakatimizda o‘zbek tili bayrami nishonlanadi. 1989-yilning 21-oktabrida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi milliy o‘zligimizni tiklash yo‘lida tarixiy burilish yasagan hodisa bo‘ldi. Bu kun xalqimizning milliy iftixori, ma‘naviy uyg‘onishi va mustaqil tafakkurining ramziga aylandi.

O‘zbek tili ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan boy va qadimiy til hisoblanadi. Uning ildizlari qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarigacha borib taqaladi. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Furqat kabi allomalarning asarlari o‘zbek tilining qudratini, so‘z boyligini, ifoda imkoniyatini namoyon etgan bebaho manbalardir.



Xususan, Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida o‘zbek tilining imkoniyatlari va badiiy salohiyatini ilmiy asosda isbotlab, unga milliy maqom bergan. U “turk tili”ni faqat millatning tili emas, balki tafakkur va adabiyot tili sifatida e‘tirof ettirgan. Shu tariqa, o‘zbek tili ilm, adabiyot, falsafa va siyosiy fikr ifodachisiga aylangan.

Tilning davlat maqomiga ega bo‘lishi har bir millat hayotida beqiyos tarixiy ahamiyatga ega. Chunki davlat tili - bu millat suverenitetining, o‘zligini anglashining, siyosiy mustaqilligining ifodasidir.

1989-yilda o‘zbek tilining davlat tili sifatida e‘tirof etilishi xalqimizning asrlar davomida orzu qilgan ma‘naviy ozodligiga eshik ochdi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida quyidagicha mustahkamlab qo‘yilgan: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”. Bu norma davlat suvereniteti va milliy birlikning huquqiy kafolatidir. Davlat tilining maqomini ta‘minlash borasidagi islohotlar mamlakatimizda izchil davom etmoqda. So‘nggi yillarda o‘zbek tilining nufuzi va qo‘llanish doirasini kengaytirish yo‘lida davlat miqyosida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish va soha doirasini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlar milliy til siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda:

barcha davlat idoralarida hujjatlar o‘zbek tilida yuritilmoqda;

ilm-fan, texnologiya, axborot sohalarida o‘zbek tilida ilmiy terminologiya rivojlanmoqda;

elektron hukumat tizimida o‘zbek tili asosiy platforma tiliga aylanmoqda;

xorijiy mamlakatlarda o‘zbek tili markazlari va kurslari tashkil etilmoqda.

Bu chora-tadbirlar o‘zbek tilini zamonaviy kommunikatsiya, texnologiya va ta‘lim jarayonlariga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Ta‘lim tizimi – davlat tilini rivojlantirishning eng muhim tayanchi. Maktabgacha ta‘limdan tortib oliy ta‘limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda o‘zbek tilini chuqur o‘rgatish, yoshlar ongida ona tiliga hurmatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Bugungi kunda o‘zbek tili nafaqat filologiya sohasida, balki huquq, iqtisod, tibbiyot, texnika, axborot texnologiyalari kabi yo‘nalishlarda ham o‘quv, ilmiy, amaliy til sifatida faol qo‘llanmoqda. Bu esa o‘zbek tilining universal imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Yosh avlod o‘z ona tilida so‘zlab, o‘qib, yozib, ilm o‘rganayotgan ekan, bu millatning mustaqil tafakkuri asrab qolingani dalolatdir.



Til – nafaqat aloqa vositasi, balki ma’naviyatni tarbiyalovchi qudratli omildir. Unda xalqning e’tiqodi, axloqi, adabiyati, urf-odatlarini mujassam.

O‘zbek tili o‘z tabiatiga ko‘ra yumshoqlik, samimiyat va hikmatni ifoda etadi. Bu tilda “or-nomus”, “sadoqat”, “vijdon”, “mehr-shafqat”, “ilm”, “odamgarchilik” kabi so‘zlar mavjud, ular xalqimizning ruhiy olamidani joy olgan qadimiy tushunchalardir.

Ona tilini ardoqlash – bu ma’naviy poklikka intilishdir. Kim o‘z tiliga hurmat bilan qarasa, u o‘z millatiga sadoqat bilan xizmat qiladi. Bugungi globallashtirish davrida milliy tillarning saqlanishi va rivojlanishi dolzarb masalaga aylandi. Dunyo tillari orasida o‘z o‘rnini yo‘qotmay, aksincha, zamon talablari asosida rivojlanayotgan o‘zbek tili – xalqimizning madaniy qudratini ifodalaydi.

Axborot texnologiyalari, internet, sun’iy intellekt sohalarida o‘zbek tilining dasturiy ta’minotini yaratish, elektron lug‘atlar, tarjima tizimlari va til korpuslarini kengaytirish tilning zamonaviy rivojlanish bosqichini belgilab bermoqda. Bu borada yosh dasturchilar, lingvistlar, filologlar, tarjimonlar faol ishtirok etayotgani quvonarlidir.

O‘zbek tili – milliy o‘zlik, ma’naviy meros va mustaqil tafakkurning yuksak timsolidir. Uni rivojlantirish, avloddan avlodga yetkazish – har bir fuqarodan mehr, e’tibor va mas’uliyat talab etadi.

Bugun o‘zbek tili davlat, xalqaro muloqot va ilmiy ijod tili sifatida mustahkam o‘rnashmoqda. U nafaqat milliy qadriyat, balki davlat siyosatining strategik ustunlaridan biridir. Shu bois o‘zbek tili bayrami nafaqat til bayrami, balki milliy g‘urur, vatanparvarlik, tarixiy xotira va istiqlol tafakkurining bayramidir.

1-topshiriq. Moslashtirish. Quyidagi tushunchalarni ularning izohi bilan moslashtiring.

A	B
1. Davlat tili	a) Xalqning ruhiy dunyosini aks ettiruvchi vosita
2. Globallashtirish	b) Milliy mustaqillikning huquqiy belgisi
3. Ona tili	c) Dunyo miqyosida integratsiya jarayoni

2-topshiriq. Xulosa chiqarish. Quyidagi fikrni davom ettiring:

“Yosh avlod ona tilida ilm olayotgan ekan, bu ...” (3-4 gap)

3-topshiriq. Muallif pozitsiyasini aniqlash. Muallifning asosiy g‘oyasini aniqlang va **nega shunday deb o‘ylaganingizni** asoslang. (5-6 gap)

4-topshiriq. Munosabat bildirish. Quyidagi savolga o‘z fikringizni yozing: “Bugungi raqamli davrda o‘zbek tilini rivojlantirish uchun yana qanday choralar zarur?” (80-100 so‘z)

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning faolligi, mustaqilligi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent. 2018.
2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. 192 bet.
3. Yo'ldoshev Q. Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. 462 bet.